“ADOLAT”
MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=357

2026-yil
3-son
mart
ISSN 3093-8546



Axborotga bo‘lgan huquqning sun’iy intellekt bilan o‘zaro bog‘liqligi va muammolari

Shavkat A’zamov,
O‘zbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti
Yurisprudensiya, biznes huquqi ta’lim yo‘nalishi 4-bosqich talabalari
e-mail: azamovshavkat98@gmail.com

Javlonbek Abdug‘aniyev,
O‘zbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti
Yurisprudensiya, biznes huquqi ta’lim yo‘nalishi 4-bosqich talabalari
e-mail: javlonbeka53@gmail.com

Аннотация. Maqolada axborotga bo‘lgan huquq va sun‘iy intellekt texnologiyalarining o‘zaro bog‘liqligi chuqur tahlil qilinadi. SI axborotga kirishni osonlashtirish bilan birga, deepfake, algoritmik tarafkashlik va dizinformatsiya kabi xavflarni yaratishi ko‘rsatilgan. Xalqaro tajriba hamda O‘zbekiston milliy huquqiy bazasi asosida muammoni tartibga solishning amaliy yo‘llari va aniq tavsiyalar taklif etiladi. Sun’iy intellektning axborotga bo‘lgan huquqni ta’minlash mexanizmlarining xalqaro tajribasi keltiriladi.

Калит сўзлар. axborot olish huquqi, axborot erkinligi, axborotga ega bo‘lish kafolatlari axborotni izlash va olish, tadqiq etish, uzatish, oshkoralik va shaffoflik, huquqiy mexanizmlar, sun’iy intellekt.

Аннотация. В данной статье представлен углубленный анализ взаимосвязи между правом на информацию и технологиями искусственного интеллекта. Показано, что ИИ, облегчая доступ к информации, создает такие риски, как дипфейки, алгоритмическая предвзятость и дезинформация. На основе международного опыта и национальной правовой базы Узбекистана предложены практические пути регулирования проблемы и конкретные рекомендации. Представлен международный опыт механизмов обеспечения права на информацию в контексте искусственного интеллекта.

Ключевые слова. право на информацию, свобода информации, гарантии доступа к информации, поиск и получение информации, исследования, передача информации, открытость и прозрачность, правовые механизмы, искусственный интеллект.

Annotation. This article provides an in-depth analysis of the interrelationship between the right to information and artificial intelligence

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

technologies. It is shown that AI, while facilitating access to information, creates risks such as deepfakes, algorithmic bias, and disinformation. Practical ways to regulate the problem and specific recommendations are proposed based on international experience and the national legal framework of Uzbekistan. International experience of mechanisms for ensuring the right to information of artificial intelligence is presented.

Keywords. right to information, freedom of information, guarantees of access to information, search and receipt of information, research, transmission, openness and transparency, legal mechanisms, artificial intelligence.

Axborot – ijtimoiy, iqtisodiy, tabiiy fanlarning, taffakur ilmining taraqqiyoti natijasida yuzaga kelgan bilim va ma’lumotlar, kishilarning amaliy faoliyati davomida to‘plagan tajribalari majmuyi demakdir [1]. Axborot erkinligi va axborotga bo‘lgan insonning eng asosiy va fundamental huquqlaridan biri bo‘lib, u ma’lumotlarni erkin izlash, olish va tarqatish imkoniyatini kafolatlaydi. “O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida fuqarolar xalqaro huquqning umum e’tirof etgan meyor va prinsiplariga muvofiq axborot olish huquqiga ega ekanligi rasman belgilab qo‘yilgan” [2]. Axborotga bo‘lgan huquqning huquqiy mohiyati sifatida shaxsning fikr va so‘z erkinligining amalda ro‘yobga chiqishining zaruriy sharti bo‘lib, u xalqaro va milliy huquqda mustahkamlangan. Axborot olish huquqi o‘z navbatida demokratiyaning “kislorodi”dir. Uni kafolatlash va amalda yo‘lga qo‘yish orqali jamiyat nafaqat so‘z erkinligini himoya qiladi, balki o‘zining haqiqiy demokratik tabiatini ham namoyish etadi. Zamonaviy demokratiyada esa u shaffoflik, hisobdorlik va fuqarolik jamiyatining asosiy mexanizmi sifatida namoyon bo‘ladi. BMTning Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 19-moddasida aniq belgilangan: “Har bir inson fikr bildirish erkinligi huquqiga ega; bu huquq axborot va g‘oyalarni har qanday vositalar orqali, chegara bilmasdan izlash, olish va tarqatish erkinligini o‘z ichiga oladi”. Bu huquq nafaqat so‘z erkinligining bir qismi, balki uning amaldagi kafolati hisoblanadi. Milliy huquqiy asos sifatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 33-moddasi (2023-yilgi yangi tahrir): “Har kim o‘zi istagan axborotni izlash, olish va tarqatish huquqiga ega” [3]. “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunning 4-moddasi esa bu huquqni “moneliksiz” amalga oshirishni kafolatlaydi [4].

Bugungi kunda axborotga bo‘lgan huquqning proaktiv va aktiv ko‘rinishdagi jarayonlari hukumat tomonidan shaffoflik va samaradorlikni ta’minlashda ma’lum qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Bunga misol qilib, talab qilingan so‘rovga javobning kechikishi yoki ko‘rmasdan qoldirilishini keltirib o‘tishimiz mumkin. Ushbu masalada tegishli ishchi kuchi yetishmasligi va ma’lumotlar bazasining yaxshi ishlamasligi axborotga bo‘lgan huquqning funksiyalarini cheklaydi. Undan tashqari, axborotga bo‘lgan huquqni talab qilib olish imkoniyatlari yetishmasligi,shuningdek,

so‘rovlarni amalga oshirishda texnik qiyinchiliklar ham bunga to‘sqinlik qilishi mumkin. Til va raqamli tizimdagi qiyinchiliklar bunga misol sifatida olishimiz mumkin. Ushbu muammolar axborotga bo‘lgan huquqni ta’minlash mexanizmlarining yangi innovatsion yechimlarini taqdim etishni taqozo etadi.

XXI asrda, xususan, so‘nggi yillarda sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarining misli ko‘rilmagan tezlikda rivojlanishi ushbu huquqning amal qilish doirasini o‘zgartirdi. Bugungi kunda sun’iy intellekt axborot tarqatishning ham asosiy vositasiga, ham unga nisbatan eng katta tahdidlardan biriga aylanib ulgurdi. Sun’iy intellekt huquqning barcha subyektlari qatori axborotning ochiq manbalariga kirish va foydalanish imkoniyatiga ega hisoblanadi. Ushbu jarayonda sun’iy intellektning xilma xil axborotlarni tahlil qilishi va talqin etishi, shu bilan birga axborotning manbasi sifatida to‘g‘ri va aniq ishtirok etishi muhim jihat hisoblanadi. Axborotga bo‘lgan huquqning sun’iy intellekt texnologiyalari bilan o‘zaro ta’sirining huquqiy, texnologik va ijtimoiy jihatlari, ya’ni SI ning axborot olish huquqini kuchaytiruvchi vositalari bilan birga uning xavflari va bu munosabatlarni tartibga solish mexanizmlari o‘z navbatida o‘rganilishi lozim bo‘ladi.

Axborot olish sohasida SI tizimlari axborot olish jarayonini avtomatlashtirish orqali samaradorlikni oshirishi mumkin. Bunga o‘z navbatida axborot so‘rovlarini turlarga tasniflash, tegishli idoralarga yuborish va ayrim hollarda standart javoblarni tayyorlanishni o‘z ichiga oladi. Bu bilan so‘rovlarni ko‘rib chiqish vaqti qisqarishiga va inson aralashuvini talab etadigan muammolar e’tibor qaratilishiga erishiladi. Katta hajmdagi ma’lumotlar bazasidan kerakli ma’lumotlarni izlash va o‘xshashligi bo‘yicha ularni taqdim etishga yordam beradi. Bu ayniqsa, tadqiqotchilarning texnik jarayonlarga sarflanadigan vaqtini tejaydi. Proaktiv ma’lumotlar sohasida ham avtomatlashtirishni samarali yo‘lga qo‘yilishini ta’minlaydi. Proaktiv ma’lumotlar deganda hukumat va qonunda belgilangan boshqa subyektlar taqdim etishi majburiy hisoblangan axborotlarni taqdim etilishini ta’minlash imkoniyati paydo bo‘ladi. Shu bilan birga, fuqarolarning so‘rovlarini umumiy tahlil qilgan holda tez-tez takroriy so‘raluvchi axborotni oldindan tahlil qilishi mumkin. Bu proaktiv shaffoflikni ta’minlashning optimal ko‘rinishidir. Shuningdek, tezkor va cheksiz foydalanish imkoniyati mavjudligi fuqarolar uchun qulaylik yaratadi. Virtual yordamchilarning ish vaqti belgilanmaganligi bois, fuqarolar o‘z savollariga javob topishlari mumkin. Bu esa axborot olish huquqini osonlashtiradi.

Axborotga bo‘lgan huquqni ta’minlashni sun’iy intellekt instrumentlari bilan takomillashtirish o‘zida katta imkoniyatlarni yaratishi bilan birga, shunday qiyinchilik va xatarlarni keltirib chiqarishi taxmin qilinadi. Bu xatarlardan birinchisi maxfiylik va axloq bilan bog‘liqdir. Yetarli darajada yaxshi tartibga solinmagan sun’iy intellekt instrumentlari maxfiy yoki sir saqlanishi kerak bo‘lgan ma’lumotlarni oshkor etish ehtimoli yuqori hisoblanadi.

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

Ma'lumotlar yig‘ish va nazorat qilish uchun sun’iy intellekt vositalaridan tobora ko‘proq foydalanish bilan birga, sun’iy intellekt texnologiyalari katta hajmdagi ma’lumotlarni tezda to‘plash uchun bebaho bo‘lishi mumkin bo‘lsa-da, beg‘araz ma‘lumotlarni yig‘ish shaxsiy maxfiylik va intellektual mulk huquqlarini buzishi mumkin [5]. Ushbu muammo natijasida hukumatning axborotni ta’minlashdagi nufuziga fuqarolarning ishonchi ommaviy ravishda kamayishiga olib keladi. SI tizimlari ular o‘qitilgan ma’lumotlardagi mavjud tarafkashliklarni o‘zlashtirishi va hatto kuchaytirishi mumkin [6]. Bunda instrumentlar oldin berilgan so‘rovlar va ularning natijalari bo‘yicha noxolis axborotni taqdim etish xavfi keltirilgan. Instrumentlar qayta ishlab foydalanadigan ma’lumotlari irqiy jinsiy yoki ijtimoiy kelib chiqish bo‘yicha tengsizliklarni o‘zida mujassam etsa ushbu axborotni uzatishda xuddi shunday tengsizlikni sodir etish ehtimoli mavjud hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda, dezinformatsiya masalasi ham jiddiy to‘siq bo‘lishi mumkin. Hozirgi kundagi sun’iy intellekt instrumentlari berilgan topshiriqni bajarishda ishonchli manbadan foydalanishiga kafolat yo‘q. Ushbu holat fuqarolar o‘rtasida noto‘g‘ri yoki ishonchli manbasi bo‘lmagan axborotlarning tarqalishiga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, “Deepfake” texnologiyasi orqali turli xil shaxslarning qiyofalari soxtalashtirilishi orqali kiberjinoyatlar amalga oshirilish tahdidi ham mavjud. Bu holat esa omma uchun axborot hujumi sifatida baholanadi.

Muammolarni hal etish va xatarlarni oldini olish uchun huquqiy asoslar va zaruriy choralar ishlab chiqilmoqda. Yevropa ittifoqining sun’iy intellekt to‘g‘risidagi aktida sun’iy intellekt tizimlarining “qabul qilib bo‘lmaydigan, yuqori, cheklangan va minimal xavf darajalariga tasniflaydi. Shu bilan birgalikda, ushbu darajalar uchun shaffoflik, inson nazorati va aniqlik mezonlarining tavsiyaviy xarakterdagi normalarini belgilab o‘tgan. Xavfsizlik va shaffoflikni ta’minlash maqsadida davlatlar o‘zlarining huquqiy bazalarini yaratmoqdalar. Sun’iy intellekt yordamida yaratilgan kontentni majburiy markirovkalash to‘g‘risida fikrlar ilgari surilmoqda. O‘zbekiston Respublikasida milliy qonunchiligida sun’iy intellekt bo‘yicha qonun normalariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilmoqda. “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning umumiy asoslari qo‘shildi. Sun’iy intellektdan foydalanish yuzasidan umumiy qoidalar belgilandi. Insonning huquqi va erkinligiga aloqador bo‘lgan yuridik ahamiyatga ega qarorlarni qabul qilish chog’ida faqat sun'iy intellektdan foydalangan holda yaratilgan axborot resurslari va sun'iy intellekt texnologiyalari asosida ishlaydigan axborot tizimlarining xulosalariga tayanish mumkin emas [7]. Ya’ni, axborot tizimi minglab varaqlik qonun hujjatlarini soniyalarda o‘qib chiqishi, dalillarni solishtirishi va o‘zining tavsiyasini berishi mumkin. Ammo, oxirgi hujjatga imzo chekishdan oldin, malakali mutaxassis SI xulosasini tanqidiy ko‘rib chiqishi, uning to‘g‘riligini tasdiqlashi va

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

o‘z vijdoniga, qonunlarga tayangan holda xulosa chiqarishi shart.

Ushbu sohada xalqaro tajriba sifatida Hindiston hukumatining ochiq platformasini olsak bo‘ladi. Hukumat ma’lumotlar to‘plamini foydalanuvchilarga qulay tarzda taqdim etish uchun sun’iy intellektga asoslangan ma’lumotlarni vizualizatsiya qilish vositalari fuqarolarga murakkab ma’lumotlarni osongina tushunish imkonini beradi [8]. Ushbu protses fuqarolar uchun katta hajmdagi axborotni oson tahlil va talqin qilish imkonini yaratadi. Shu bilan birgalikda, til to‘siqlarini ham yengishda asqotadi. O‘zbekistonda 2024-yilda sun’iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish bo‘yicha strategiya xalq muhokamasiga qo‘yildi. Ushbu strategiyada sun’iy intellektning insoniyat ravnaqi uchun xizmatini oshirish va rivojlantirish maqsadida 2018-yil may oyida 10 ta davlat ishtirokida Shimoliy Boltiq Hududida sun’iy Intellekt Deklaratsiyasi imzolangan [9].

XULOSA

Axborot olish huquqi har bir shaxsning mustaqil huquqidir va bu xalqaro miqyosda kafolatlanadi va ta’minlanadi. SI tizimlari mukammal emas. Ular xato qilishi, noto‘g‘ri ma’lumotlarga tayanishi yoki kutilmagan dasturlash xatoliklari tufayli umuman mantiqsiz xulosalar berishi mumkin. Zamonaviy qonunchilik (masalan, Yevropa Ittifoqining yangi “AI Act” qonuni va O‘zbekistondagi milliy raqamlashtirish konsepsiyalari) “Inson nazoratidagi SI” (Human-in-the-loop) tamoyilini talab qiladi. Sun’iy intellektlarni samarali qo‘llash an’anaviy tizimlardagi qog‘ozbozlik va sun’iy kechikishlarni bartaraf etib, hukumatning real vaqt rejimida fuqarolarga javob berish imkoniyatini yaratadi. Bu esa xalqning davlatga ishonchini oshiradi. Davlat organlari eng ko‘p so‘raladigan ma'lumotlarni avtomatik ravishda e’lon qilib borishini ta’minlaydi, bu esa fuqarolarning ortiqcha ariza yozishiga bo‘lgan ehtiyojini kamaytiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

Axborot texnologiyasi va tizimlari. R.X.Alimov, G.T.Yulchiyeva, O.Q. Rixsimboyev, Sh.A. Alishov.: Voris-nashriyot. Toshkent, 2011

Huquqiy informatika/ A.O‘. Muhammadiyev. –T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2006-yil. 224 b.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son;

“Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida”gi qonun. // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son;

Challenges raised by AI regarding the right to information 2023-yil 28-sentabr URL:https://wan-ifra.org/2023/09/ai-challenges-regarding-the-right-to-information/

Establishing Ethical AI: Legal Frameworks and Standards for Algorithmic Fairness and Data Governance 2024, Wesam Abedrabo,
URL:https://www.researchgate.net/publication/385001595

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

“Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida”gi qonun. // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son;

Capitalizing On Artificial Intelligence For Enhanced Rti Implementation: Innovations And Challenges In Transparency And Accountability. 2024-dekabr Banupriya G. va Raghulkana S. URL:https://journalijcar.org/sites/default/files/issue-files/14586.pdf

2021–2022-yillarda O‘zbekiston Respublikasida sun’iy intellektni rivojlantirish strategiyasi. URL:https://regulation.gov.uz/uz/document/19838